

### **Boshqa o'zgaruvchan xarajatlar**

- Quritish - Quritish xarajati, jumladan muntazam boshqoqli ekinlar uchun yuzaga keladi. O'rtacha quritish darajasi va quritish xarajati (o'rtacha don namligi) ning tuzilishida o'rtacha xarajati har gektar (ga) uchun aniqlash mumkin. Misol uchun, quritish xarajatida o'rtacha quritish darajasi asosi har yili hosilning 25 % i hisobida baholanadi.

Tajribada, savdo korxonasi qoidaga ko'ra, xarajat jadvali yordamida har sentner nam tovar uchun quritish xarajatini hisob-kitob qiladi.

- Do'lga qarshi sug'urtalash:

Do'lga qarshi sug'urtalash mukofoti, qoidaga ko'ra maxsulotning bozordagi qiymatiga bog'liq ravishda shakllanadi. Foiz to'lovlari maxsulotning bozor bahosi (mukofotsiz) bilan ko'paytirilishi kerak.

	Foizlar
Javdar,	1.50%
Qishki arpa, yozgi arpa, makkajo'xori	2,25%
Yulaf, loviya	3.00%
quritilgan no'xat	4,50%

- Foiz mahsulotning bozor qiymatiga ko'paytirilishi kerak (mukofotsiz). Amalda sug'urta summasi har yili qo'llanilmaydi, aksariyat turdagi ekinlarning sotilishidan olinadigan daromad sug'urta qilinadi.

- Saqlash, konservalash, saralash

Mahsulotni saqlash, konservalash yoki saralash xarajatlari tanlangan birlikka tegishli bo'ladi. Agar imkoniyat bo'lsa, mahsulot alternativ yoki hosil bo'yicha sotiladi yoki omborda saqlanadi. Ko'pincha omborda saqlash alohida ishlab chiqarish jarayoni sifatida olish maqsadga muvofiqdir. Bu usulda kechroq sotish orqali olinadigan daromad omborda saqlash xarajatini (omborga joylashtirish/olib chiqish, konservalash materiallari, shamollatish/salqinlatish, yo'qotish, ombor va hakazo) qoplaydimi yoki yuqmi, teshirish

mumkin/

- Sotish xarajati

Sotish xarajati hisobga olinmasdan qolishi mumkin emas. Lekin bu ko'pincha oddiy buni bevosita bozor bahosidan chegirib tashlab, pul tushumiga teng holda Hovli-Transport Baholarida hisoblanadi.

- Ishlab chiqarish litsenziyali to'lovi.

Tajribada ishlab chiqarish litsenziyali to'lovini to'lash ko'pincha "Qishloq xo'jalik kooperatsiyasi va o'simliklar seleksiyasi bitimi" ga ko'ra boshqariladi. Ishlab chiqarish litsenziyali to'lovi o'ziga xos bo'lib, har ts umumiy urug'likka bo'lgan talabdan tashkil topadi. Kooperatsiya bitimiga ko'ra, litsensiyali to'lovning har xil foiz ulushi ishlab chiqarish qismi ga bog'liq ravishda hisoblanadi. Fermer kamida 20% ishlab chiqarish ulushida 10% litsensiyali to'lovdan qisqartirish (xarajat qisqarishi) oladi.